

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI GAZETA SARLAVHALARIDA PRAGMATIK
PRESUPPOZITSIYANING TARJIMA MUAMMOLARI VA UNGA DOIR
TAVSIYALAR

Toshboyeva Odinaxon Elbek qizi

Kokand universiteti Andijon filiali “Xorijiy tillar” kafedrası

o‘qituvchisi, KU mustaqil izlanuvchisi (PhD)

e-mail: ltoshboeva@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqola bugungi globallashuv davrida ommaviy axborot vositalari, xususan, bosma va elektron gazeta nashrlari jamiyatda axborot almashish, jamoatchilik fikrini shakllantirish hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga munosabat bildirish kabi vazifalarni bajaradi. Mazkur jarayonda internet gazeta sarlavhalari alohida ahamiyat kasb etib, axborotni yetkazish bilan birga, sarlavha o‘quvchini matnni o‘qishga undash, uni baholash va muayyan fikrni singdirish kabi funksional xususiyatlarni o‘zida namoyon etadi. Ingliz va o‘zbek internet gazeta sarlavhalarining lingvistik xususiyatlaridan biri sifatida unda presuppozitsion ma’nolarning qo‘llanilishini kirita olamiz. Presuppozitsiya nutqda bevosita ifodalanmagan, ammo gap mazmuni orqali oldindan taxmin qilinadigan, o‘quvchi tomonidan mavjud deb qabul qilinadigan ma’nodir. Ingliz tilidagi sarlavhalarda presuppozitsiya, asosan, leksik vositalar, grammatik konstruksiyalar va madaniy birliklarda o‘z aksini topadi. Bunday yashirin ma’nolarning sarlavhada keltirilishi uning ta’sirchanligini oshiradi, ammo boshqa tilga tarjima qilinganda muayyan muammolarni keltirib chiqaradi.*

Kalit so‘zlar: *Internet, gazeta, tarjima, presuppozitsiya, leksik vositalar, sarlavha, grammatik konstruksiya, madaniy birlik, funksional, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy-siyosiy.*

Abstract: *This article examines how, in today’s era of globalization, mass media—particularly print and electronic newspaper publications—serve essential functions in society, such as facilitating information exchange, shaping public opinion, and expressing attitudes toward socio-political processes. Within this context, internet newspaper headlines hold particular significance, as they not only convey information but also perform functional roles such as attracting readers to engage with the text, influencing their evaluation, and instilling particular viewpoints. One of the notable linguistic features of English and Uzbek online newspaper headlines is the use of presuppositional meanings. Presupposition refers to meanings that are not explicitly stated in discourse but are implicitly assumed through the content of the utterance and accepted by the reader as given. In English-language headlines, presupposition is mainly manifested through lexical devices, grammatical constructions, and cultural references. The inclusion of such implicit meanings enhances the expressive and persuasive power of headlines; however, it may also create certain challenges in the process of translation into another language.*

Keywords: *Internet, newspaper, translation, presupposition, lexical devices, headline, grammatical construction, cultural reference, functional, mass media, socio-political.*

Аннотация. *Настоящая статья рассматривает, что в эпоху глобализации средства массовой информации, в частности печатные и электронные газетные издания, выполняют в обществе такие функции, как обмен информацией, формирование общественного мнения, а также выражение отношения к социально-политическим процессам. В данном процессе особое значение приобретают заголовки интернет-газет, которые не только передают информацию, но и выполняют функциональные задачи, такие как побуждение читателя к чтению текста, его оценка и внедрение определённых взглядов. Одной из лингвистических особенностей интернет-заголовков английского и узбекского языков является использование пресуппозициональных значений. Пресуппозиция — это значение, которое не выражено напрямую в речи, но подразумевается содержанием высказывания и воспринимается читателем как данное. В английских заголовках пресуппозиция в основном реализуется через лексические средства, грамматические конструкции и культурные элементы. Включение таких скрытых значений в заголовки повышает их выразительность, однако при переводе на другой язык может вызывать определённые трудности.*

Ключевые слова: *Интернет, газета, перевод, пресуппозиция, лексические средства, заголовок, грамматическая конструкция, культурная единица, функциональный, средства массовой информации, социально-политический.*

KIRISH (INTRODUCION)

Tarjima jarayoni ikki til o‘rtasidagi grammatik va leksik moslikni ta’minlash bilan birga, pragmatik va madaniy ma’nolarni ham yetkazishni talab etadi. Shu boisdan, ingliz tilidagi gazeta sarlavhalarida mavjud presuppozitsion ma’nolarni o‘zbek tiliga tarjima qilish o‘ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi. Zero, ingliz va o‘zbek tillari turli til oilalariga mansub bo‘lib, ularning sintaktik tuzilishi, kommunikativ va pragmatik maqsadlari hamda ommaviy axborot vositalaridagi uslublari bir-biridan farq qiladi. Ingliz tilida gazeta sarlavhalari, asosan, fe‘lsiz, qisqartirilgan shaklda yoki so‘roq ko‘rinishida berilib, o‘quvchidan mavzu doirasida muayyan pragmatik bilimlarni taqozo etadi, o‘zbek tilida esa sarlavhalar nisbatan ochiq, izohli va to‘liq mazmunda beriladi. Mazkur farqlar presuppozitsion ma’nolarning tarjimada yo‘qolishi, noto‘g‘ri talqin etilishi yoki kuchsizlanishiga olib keladi. Hozirgi kunda xalqaro axborot oqimi oshib borayotgan bir paytda ingliz tilidagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy mazmundagi yangiliklar o‘zbek tiliga tarjima qilinmoqda. Agar sarlavhalardagi presuppozitsiyalar to‘g‘ri talqin etilmasa, axborotning mazmuni buzilishi, o‘quvchi ongida noto‘g‘ri tasavvur uyg‘otishi yoki muallifning kommunikativ va pragmatik maqsadini o‘zgartirib yuborishi mumkin. Ingliz tilidagi presuppozitsiya, asosan, madaniy bilim, pragmatik va kommunikativ omillar bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘zbek tilida esa bunday ma’nolarni ifodalash uchun qo‘shimcha leksik birliklar, izohlar, funksional ekvivalentlardan foydalanish lozim.

Ingliz tilidagi internet gazeta sarlavhalarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda quyidagi muammolar aniqlandi:

1. Leksik presuppozitsiyaning yo‘qolishi.

1. Leksik presuppozitsiyaning yo‘qolishi. Leksik presuppozitsiya – sarlavhadagi yashirin ma’no va bilimlarni leksik birliklar orqali ifodalovchi hodisadir. Sarlavhada stilistik, leksik va assotsiativ birliklar leksik presuppozitsiyani vujudga keltiradi, masalan, metafora va metonimiya sarlavhada bevosita aytilmagan bog‘lanishni anglatadi, ular o‘xshatish yo‘li bilan voqelikni obrazli talqin qiladi. Ammo mazkur turdagi leksik presuppozitsiyani tarjima jarayonida asl mazmuni va pragmatik funksiyasini saqlagan holda boshqa tilda ifodalash murakkab jarayondir. Xususan, ingliz tilidagi bunday leksik presuppozitsiyalarni tarjima tiliga ma’nosini saqlagan holda ko‘chirish tarjimondan alohida mahorat va bilimni talab etadi.

Leksik presuppozitsiyani tarjimada saqlab qolish uchun quyidagi 2 tavsiyani keltiramiz:



1. Qo‘shimcha leksik birliklardan foydalanish. Bunda tarjimon manba tilidagi leksik birliklar orqali ifodalangan presuppozitsion ma’nolarni aniqlab, qo‘shimcha leksik komponentlar yordamida uni tarjima tilida ochiqroq va batafsilroq ifodalaydi.

2. Funksional ekvivalent asosida tarjima qilish. Bu usulda manba tilidagi leksik birliklarning shakliy, grammatik mosligiga emas, uning pragmatik vazifasi va kommunikativ ahamiyatiga e’tibor qaratiladi, presuppozitsiyani yuzaga keltiruvchi boshqa leksik vosita yoki grammatik strukturadan foydalaniladi.

He likes scaring people: how Modi’s right-hand man, Amit Shah, runs India sarlavhasida asosiy leksik presuppozitsiyalar 3 birlikma bilan ifodalanadi:

a) likes scaring people: Amit Shah odamlarni qo‘rqitadi, bu harakat takroriy va davomiy, bu shaxsiy boshqaruv uslubidir; b) Modi’s right-hand man: Amit Shah siyosiy jihatdan juda qudratli; u Narendra Modi siyosatini amalga oshiruvchi shaxs, u Hindistondagi markaziy boshqaruvchi; d) runs India: Amit Shah Hindistonni boshqarish bilan birga katta vakolatlarga ega, u siyosiy qarorlarni qabul qiladi, u norasmiy hokimiyatni ham boshqaradi.

So‘zma-so‘z tarjimasi: U odamlarni boshqarishni yoqtiradi, Modining o‘ng qo‘li hisoblangan Amit Shah Hindistonni qanday boshqaradi.

Funksional ekvivalent tarjima: U odamlarni qo‘rqitish orqali ish yuritadi, Modining eng yaqin hamkori hisoblangan Amit Shah Hindistondagi boshqaruv vakolatidan qanday foydalanadi?

Sarlavhaning so‘zma-so‘z va tavsiya etilgan tarjima variantlari

<i>№</i>	<i>Ingliz tilida</i>	<i>So‘zma-so‘z tarjima</i>	<i>Tarjimadagi muammolar</i>	<i>Tavsiya etilgan tarjima</i>
<i>1</i>	<i>Likes scaring people</i>	<i>Odamlarni qo‘rqitishni yoqtiradi</i>	<i>Doimiylik, tizimlilik ma‘nosi yetarli ifodalanmaydi</i>	<i>Odamlarni qo‘rqitish orqali ish yuritadi</i>
<i>2</i>	<i>Modi’s right-hand man</i>	<i>Modining o‘ng qo‘li</i>	<i>Siyosiy qudrat va funksional ma‘no to‘liq ifodalanmaydi</i>	<i>Modining eng yaqin hamkori</i>
<i>3</i>	<i>Runs India</i>	<i>Hindistonni boshqaradi</i>	<i>Tanqidiy va baholovchi ma‘no yumshaydi</i>	<i>Hindistondagi boshqaruv vakolatidan qanday foydalanadi.</i>

Yuqoridagi jadvalda keltirganimizdek, ingliz tilidagi leksik birliklarni o‘zbek tiliga bevosiya, shakliy jihatdan moslik asosida tarjima qilish presuppozitsion ma‘nolarni to‘liq ifodalamaydi:

- Likes scaring people birikmasidagi likes fe‘liga xos bo‘lgan davomiylik, takroriylik, tizimlilik ma‘nolari o‘zbek tilidagi yoqtiradi so‘zida yetarlicha ochib berilmaydi. Shuning uchun tarjimada qo‘shimcha leksik birliklardan foydalanish tavsiya etilib, odamlarni qo‘rqitish bilan ish yuritadi varianti tanlandi.

- Modi’s right-hand man birikmasi Modining o‘ng qo‘li deb tarjima qilinishi ham presuppozitsion ma‘noni to‘liq ochib bermaydi. So‘zma-so‘z tarjimada birikmaning metaforik va funksional ma‘nosi, ya‘ni shaxsning siyosiy qudrati,

boshqaruvdagi o‘rni yetarlicha ifodalanmaydi. Shu bois, funksional ekvivalent tanlash asosida tarjima qilindi: Modining eng yaqin hamkori;

- Runs India birikmasidagi run fe‘li orqali ifodalangan muallifning baholovchi va tanqidiy munosabati o‘zbek tilidagi boshqaradi, yurgizadi fe‘llarida o‘z aksini topmaganligi bois, funksional ekvivalent tanlandi: Hindistondagi boshqaruv vakolatidan qanday foydalanadi.

Billionare tech boss Mike Cannon-Brookes is dating a new mystery woman after split from his wife Annie sarlavhasidagi asosiy leksik presuppozitsiyalar va ular orqali ifodalangan presuppozitsion ma‘nolarni keltiramiz: a) Billionare tech boss: Mayk Brukes juda boy va iqtisodiy qudratga ega, u texnologiya sohasida yetakchi mavqega ega, uning shaxsiy hayoti omma uchun qiziq; b) is dating anew mystery woman: u hozir romantik munosabatda, bu munosabat endigina boshlangan, ayol shaxsi noma‘lum; d) after split from his wife Annie: u ilgari rasmiy nikohda bo‘lgan, u Anna bilan ajrashgan, yangi ishqiy munosabat ajrashgandan so‘ng boshlangan.

So‘zma-so‘z tarjima: Milliarder texnologiya Rahbari Mayk Kennon-Brukes rafiqasi Anna bilan ajrashganidan so‘ng yangi sirli ayol bilan uchrashmoqda.

Tavsiya etilgan tarjima: Texnologiya sohasida nufuzli milliarder Mayk Kennon-Brukes rafiqasi Anna bilan ajrashgandan so‘ng shaxsi oshkor qilinmayotgan boshqa ayol bilan ishqiy munosabatda.

Sarlavhaning so‘zma-so‘z va tavsiya etilgan tarjima variantlari

<i>No</i>	<i>Ingliz tilida</i>	<i>So‘zma-so‘z tarjima</i>	<i>Tarjimadagi muammolar</i>	<i>Tavsiya etilgan tarjima</i>
1	<i>Billionare tech boss</i>	<i>Milliarder texnologiya rahbari</i>	<i>Shaxsning ijtimoiy qudrati to‘liq ifodalanmaydi</i>	<i>Texnologiya sohasida nufuzli milliarder</i>
2	<i>Is dating</i>	<i>Uchrashmoqda</i>	<i>Baholovchi ma’no yo‘qolgan</i>	<i>Ishqiy munosabatda</i>

Jadvalda berilgan *billionare tech boss* birikmasining milliarder texnologiya rahbari tarzidagi so‘zma-so‘z tarjimasi shaxsning ijtimoiy qudratini yetarli darajada ko‘rsatmaydi. Ingliz tilidagi mazkur birikma orqali biz ushbu shaxs moddiy boylikka ega ekanini, texnologiya sohasida yetakchi mavqega egaligini tushunamiz. Tavsiya etilgan texnologiya sohasida nufuzli milliarder variantida esa qo‘shimcha leksik birliklar bilan presuppozitsion ma’no yanada to‘liq beriladi va baholovchi munosabat bildiriladi.

is dating birikmasining uchrashmoqda deb tarjima qilinishi ingliz tilidagi leksik presuppozitsiyaning ma’lum darajada yo‘qolishiga olib keladi. *Dating* fe’li ingliz tilida romantik va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan munosabatni bildiradi, o‘zbek tilidagi uchrashmoq fe’li esa oddiy, romantik munosabatlardan yiroq ma’noni beradi. Tavsiya etilgan ishqiy munosabatda birikmasi esa ingliz tilidagi birlikning presuppozitsion ma’nosini saqlaydi.

REFERENCES:

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent.: Fan va texnologiya, 2009. – 416 b.
2. Teshabayeva D.M., Bakieva G., Isroil M., Toshmuxamedova L., Nuritdinova M., Mahammadaliyev H. Jurnalistika: Medialingvistika va tahrir. – Toshkent: O‘zbekiston davlat ommaviy kommunikatsiya agentligi, 2019. – 522 b.
3. Yo‘ldoshev I., Sharipova O‘. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2007. – 192 b.
4. Абдурахмонов Ф., Шоабдурахмонов Ш.Ш., Ҳожиёв А.П. Ўзбек тили грамматикаси. Синтаксис. II том. – Тошкент: Фан, 1976. – 560 б.
5. Сафаров Ш., Тоирова Г., Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДЧТИ, 2007. – 39 б.
6. Хашимов Г.М. Типология сложных предложений разносистемных языков. – Ташкент: Фан, 1991. – 103 с.
7. Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – 136 б.

25-May, 2026-yil

8. Қосимова Н., Файзуллаева Х. Медиа этика. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – 206 б.
9. Fairclough N. Media Discourse. – London: The university of Lancaster press, 1995. – 214 p.
10. Fowler R., Hodge B., Kress G., Trew T. Language and control. – London: Routledge and Kegan Paul, 1979. – P. 157-175.